



PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS INTERNATIONAL CONFERENCE

2025

IŠBN 978-955-3605-86-4

© Sp. z o. o. "CAN", 2025

© Authors, 2025

PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 June, 2025) - Copenhagen: 2025. Part 46 – **300** p.

Editorial board:

Tone Roald, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen

Elin Eriksen Ødegaard, Professor, Western Norway University of Applied Sciences

Mariane Hedegaard, Professor Emerita, Copenhagen University, Denmark

Magnus Englander, PhD Associate Professor of Psychology Malmö University, Sweden

Paul Sullivan, PhD University of Bradford Bradford, United Kingdom

Mathias Traczyk Søren, PhD

Thiesen Amanda, PhD

Nybroe Røhde, PhD

Languages of publication: dansk, English, русский, беларуская, limba română, uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS". Which took place in COPENHAGEN on 17 June, 2025.

Konferencehandlinger anbefales til videnskabsmænd og lærere i højere læreanstalter. De kan bruges i uddannelse, herunder undervisning i postgraduate studier, forberedelse til opnåelse af bachelor- og kandidatgrad. Gennemgangen af alle artikler blev udført af eksperter, materialer er i henhold til forfattere copyright. Forfatterne er ansvarlige for indhold, undersøger resultater og fejl.



Conference Alerts
N E T W O R K

PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS

Part 46
June 2025

Collection of Scientific Works

Copenhagen "Science Edition" 17 June 2025

TABLE OF CONTENTS

DAVITOVA SHAKHZODA DONIYOR KIZI <i>PROSPECTS FOR ATTRACTING FDI TO UZBEK ECONOMY.</i>	11
FAYZIYEVA NAZOKAT ANVAROVNA <i>“KASALXONA ICHKI INFEKSIYASI PROFILAKTIKASI”</i>	14
ХОЖАЛЕПЕСОВА ХУРЛИМАН <i>АКТЁРЛИК САЊАТИ ВА ТИП МАДАНИЯТИ</i>	17
XASANOVA MARXABO NOSIROVNA <i>MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIMIDA GRAFIK TOPSHIRIQLAR PLATFORMASINING QO'LLANISHI ORQALI PEDAGOGIK NATIJALARGA ERISHISH TAJRIBASI</i>	22
ILXOMJON ISLAMOVICH ISLOMOV <i>IQTISODIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI MUHIM OMILLAR</i>	26
OTAKISHIYEVA LAYLO IBROXIM QIZI O.X.KASIMOVA <i>MAHALLIY GO'SHT MAHSULOTLARIDA SIFATSIZLIK SABABLARINI BAHOLASH VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI</i>	31
DJIYANBAYEVA ROBIYA ILYASOVNA <i>TRANSLATING COMPLEX CHARACTERS: CHALLENGES IN RENDERING COMPLEX CHARACTERS FROM ENGLISH LITERARY WORKS IN THE CONTEXT OF UZBEK CULTURE</i>	33
АЙМУХАММЕДОВА ТУМАРИС КАКАЖАНОВНА <i>МАХСУС ТАЪЛИМ ОЛИШ ЭЎТИЁЖИ БОР БОЛАЛАР БИЛАН ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТ</i>	37
QUDIYAROV ALISHER RAMETULLAEVICH BURANOV RAXMAN ADILBAY ULI <i>THE ROLE OF MUSEUMS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM</i>	42
С.Э.ТУРСИНБОЕВА <i>ПРОБЛЕМА ОТЦОВ И ДЕТЕЙ В ЛИТЕРАТУРЕ РАЗНЫХ ЭПОХ</i>	46
SHAKHLO SADIKOVA <i>UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGE UNIVERSITY</i>	50
SHAKHLO SADIKOVA <i>COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT)</i>	53
HULKAROY QALANDAROVA NAVFAR QIZI <i>INNOVATIVE METHODS FOR FOSTERING CREATIVE THINKING SKILLS IN UNIVERSITY STUDENTS WITHIN THE</i>	57

FRAMEWORK OF MODERN PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING PRACTICES	
DAVLATOV BAHODIR AKBAR O'G'LI QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ENERGIYA BOZORINI LIBERALLASHTIRISH VA ATROF-MUHITNI MUHOFOZA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI	63
MUWSA NARIMBETOV THE ROLE OF MOBILE APPLICATIONS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN SUPPORTING SELF-DIRECTED LEARNING AT INSTITUTIONS OF HIGHER EDUCATION	71
TILLABAYEVA RA'NO TURAKULOVNA "BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARNI KICHIK YOSHIDANOQ KASBGA QIZIQTIRISH VA YO'NALTIRISH"	74
BOBOEVA BAKHORA INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR CHILD RIGHTS	77
SIROJIDDINOVA ZULAYHO BAXROMJON QIZI DEHQONBOYEVA MASHXURA JAHONGIR QIZI LANGUAGE PEDAGOGY IN THE DIGITAL AGE: EFFECTIVE STRATEGIES AND BEST PRACTICES	82
TO'RAYEVA MADINA ISLOMOVNA FIZIKANI O'QITISHDA STEAM USULINING AHAMYATI	85
ABDUKARIMOVA QADRIYA ISTAT QIZI KOMPYUTER TEXNIKASINING RIVOJLANISH TARIXI	90
SULTONOVA GULBAXOR MURTAZAXONOVNA THE ROLE OF COGNITIVE LINGUISTICS IN LANGUAGE USE	95
TEMIROV SHOHJAHON BOYG'UN O'G'LI JINOYAT - PROTSESSUAL HUQUQIDA DASTLABKI TERGOVNI TO'XTATISH VA QAYTA TIKLASH TUSHUNCHASI	97
TULKIN ISLAMOVICH PRIMOV AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KURSIDA BILIMLARNI TIZIMLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA MODELLARNING TASNIFI	111
OVULOV JAHONGIR ISOM O'G'LI O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLARDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA QONUNCHILIGINING TAQQOSIY TAHLILI	114
OVULOV JAHONGIR ISOM O'G'LI O'ZBEKISTONDA YASHIL ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY ASOSLARNING AHAMIYATI	122
XUDOYBERDIYEV DOSTONBEK RUSTAMBEK O'G'LI BOBOMURODOV JAXONGIR JO'RABOY O'G'LI SHARQONA INTERYER DIZAYNINING O'ZIGA XOSLIGI	130

TO'XTAMUROTOV FOZILJON ODILJON O'G'LI YUNUSOV ISKANDAR ORIFJONOVICH <i>RESPUBLIKADA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI</i> <i>TA'MINLASHNING ZARURATI VA UNI AMALGA</i> <i>OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSSUSIYATLARI</i>	136
NAZIRJONOVA MUBINAXON MAMATYUSUPOV AZAMATJON <i>ARPABADIYON O'SIMLIGINING BIO-EKOLOGIK</i> <i>HUSUSIYATLARI VA FARMATSEVTIK AHAMIYATI</i>	140
JAXONGIROV YUSUFOXUN AVAZBEK O'G'LI MAMATYUSUPOV AZAMATJON <i>YALPIZ (MENTHA) O'SIMLIGI: GEOGRAFIYASI, BIOLOGIYASI,</i> <i>EKOLOGIYASI VA FARMATSEVTIK AHAMIYATI</i>	144
MAMAZOKIROVA SARVINOZBEGIM ABDURASHID QIZI <i>AYOLLAR SALOMATLIGIDA ENDOMETRIOZNING KECH</i> <i>ANIQLANISHI OQIBATLARI</i>	155
SEVINCH TURSUNOVA <i>LA CULTURE GASTRONOMIQUE FRANÇAISE À TRAVERS</i> <i>LE REGARD D'UNE ÉTUDIANTE ÉTRANGÈRE</i> <i>OBSERVATIONS LINGUISTIQUES ET CULTURELLES</i>	161
G.MIRZAAXMEDOVA <i>ANALITIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK</i> <i>USULLARI</i>	164
ZUHRIDDIN JO'RAQULOV NURIDDIN O'G'LI <i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA KUCH</i> <i>ISHLATMASLIK YOKI KUCH BILAN TAHDID QILMASLIK</i> <i>TAMOYILINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR</i> <i>YO'NALISHLARI</i>	168
ИРИСБОВЕВА ЁҚУТХОН ЎТБОСАРОВНА <i>ТАЛАБАЛАРНИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ</i> <i>МАЗМУНИ</i>	171
IRISBOEVA YAKUTKHAN O'TBOSAROVNA <i>PROFESSIONAL SKILLS NEEDED TO SOLVE</i> <i>PROFESSIONAL PROBLEMS</i>	175
SHAMSIDDINOVA ADIBA MUZAFFAR QIZI <i>PISA DASTURINING O'QUV MASHG'ULOTLARIDAGI</i> <i>AHAMIIYATI</i>	179
YOKUTHON OTBOSAROVNA IRISBOEVA ZARNIGOR UMAROVA GOZALKHON DADABOYEVA <i>TITLE: THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR</i> <i>PEDAGOGICAL ACTIVITY</i>	183
YOKUTHON O'TBOSAROVNA IRISBOEVA	186

NILUFAR JUMABOYEVA <i>THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN</i>	
ALISHER ERGASHEVICH ERNAZAROV MUXTOROVA FERUZA MAMASOLIEVNA <i>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA DARS KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH</i>	189
O. TURSUNOVA R.JABBAROVA <i>SIFATLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISHLATISHI: UMUMIYLIKLAR VA FARQLAR</i>	193
ZARIMOVA TURSINAY BERDIBAY QIZI <i>QARAQALPAQ XALQI MILLIY MUZIKASI TIYKARINDA OQIWSHILARDIŇ RUWXIY PÁZIYLETLERIN QÁLIPILESTIRIWDEGI ORNI</i>	198
TOSHMATOV IKROM MENGALIYEVICH <i>YANGI O'ZBEKISTONDA TALIM ISLOHATLARI NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR</i>	202
ABDULLAYEVA GULCHEHRA G.E.ABDIYEVA <i>RAQSNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA KELAJAGI – BU HARAKAT ORQALI TARBIYA BERISHDIR</i>	205
РИХСИБАЕВ УЛУҒБЕК ТИМУРОВИЧ <i>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И МОДЕРНИЗАЦИЯ АЛГОРИТМОВ РЕШЕНИЯ МЕТРИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ</i>	207
IBADULLAYEV BOTIR ILXAMOVICH RAHMANOV GULOMJON NEMATOVICH <i>DEVELOPING YOUNG LEARNERS' SPEAKING SKILLS THROUGH VARIOUS ACTIVITIES</i>	213
IBADULLAYEV BOTIR ILXAMOVICH RAHMANOV GULOMJON NEMATOVICH <i>ENHANCING YOUNG LEARNERS' SPEAKING PROFICIENCY THROUGH ENGAGING CLASSROOM ACTIVITIES</i>	217
DJUMABAYEVA SALOMAT KAMILJANOVNA <i>XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI GEOGRAFIYASIGA OID MASALALAR</i>	221
ABDUQODIROV DAVRON SOLIJON O'G'LI MAXMUDOV MUXSINJON MANSURJON O'G'LI <i>FUTBOLCHILARNI MASHG'ULOT JARAYONIDA KUCH VA CHIDAMKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH</i>	225
ABDUQODIROV DAVRON SOLIJON O'G'LI	228

MAXMUDOV MUXSINJON MANSURJON O'G'LI <i>FUTBOLCHILARNI MAXSUS JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR</i>	
ABDUQODIROV DAVRON SOLIJON O'G'LI MAXMUDOV MUXSINJON MANSURJON O'G'LI <i>FUTBOLCHILARNI MUSOBAQAGA TAYYORLASHDA TEXNIK- TAKTIK TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH</i>	232
O'LMASOV MIRZOHID MUZAFFARJON O'G'LI <i>BADMINTONDA MUSOBAQA OLDI MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI</i>	236
BOBOLOV NURIDDIN TOJIYEVICH. <i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING O'RN</i>	240
JAMOLOV SHAHBOZ JAMIL O'G'LI <i>PARABOLIK–GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN XARAKTERISTIKADAN SILJIGAN CHIZIQLARNI O'Z ICHIGA OLGAN QUYI YARIM SOHADA CHEGARAVIY MASALA</i>	248
RAHMONOV ERKIN SODIQ O'G'LI <i>BIR JINSLI SOHALARDA KARLEMAN FORMULASI</i>	256
BEKMURATOVA GULBAXAR DAVLETOVNA <i>SHAR VA UNING BO'LAKLARI HAJMI</i>	260
MIRZAAXMEDOVA GULSHANOY ESONOVA KLARAXON MAHMADAMIN QIZI <i>INKLUZIV TA'LIMNING INSONPARVAR VA SAMARALI TA'LIM SIFATIDAGI ROLI.</i>	264
M.SH. NARZULLAYEVA M.G'.XUJAMUROTOVA <i>TO'RTBURCHAKLI PLASTINKANING MAKSIMAL EGILISHI</i>	270
DJURABOEVA KHUSNIDA MUZAFFAR QIZI <i>PREPOSITIONAL POLYSEMY IN THE ENGLISH LANGUAGE</i>	272
ABDUVAXOBOVA GULSARA AKROMJON QIZI <i>NASIRIDDIN TUSIYNING BILISH FALSAFASIGA OID QARASHLARI</i>	277
KENJAYEV MAQSUD NEGMAT O'G'LI <i>KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA DAVLAT BOSHQARUVIDA DUNYOVIYLIKNING MUSTAHKAMLANISHI</i>	283
R.ODILOVA <i>O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHDA MUSIQA O'QITUVCHINIG ROLI.</i>	288
ZIYAYEV UMRZOQ MURODOVICH <i>GEOMETRIYANI QANDAY O'RGATISH BO'YICHA</i>	293

STRATEGIYA

S.I.SAYDULLAYEVA

SH.M.SAIDAZIMOVA

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN
SCUTELLARIA GUTTATA NEVSKI EX JUZ. O'SIMLIGINING
MORFOLOGIK EKOLOGIK XUSUSIYATLARI*

297

NASIRIDDIN TUSIYNING BILISH FALSAFASIGA OID QARASHLARI

TDSHU, “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrası o’qituvchisi
Abdavaxobova Gulsara Akromjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Nasiriddin Tusiyning bilish falsafasiga oid qarashlariga bag’ishlangan bo’lib, uning gnoseologik qarashlari faylasufning asarlari asosida tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *Hayulo, ilm-ul yaqiy, yunon-rim falsafasi, saydi komil, “Adab ul-mutaallimin”.*

Аннотация: *Данная статья посвящена взглядам Насириддина Туси на философию познания, и его гносеологические взгляды анализируются на основе трудов философа.*

Ключевые слова: *Науло, илм-ул якийн, греко-римская философия, сайди комил, «Адаб ул-мутааллимин».*

Annotation: *This article is dedicated to Nasir al-Din al-Tusi's views on the philosophy of knowledge, and his epistemological views are analyzed based on the philosopher's works.*

Keywords: *Hayulo, ilm-ul-yaqin, Greco-Roman philosophy, saydi komil, "Adab ul-mutaallimin."*

Inson boshqa mavjudotlardan farq qilib, onga, o’z-o’zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish, o’z hayotining maqsadi va mazmunini bilishga tirishish, go’zallik yaratishga va har tomonlari barkamol bo’lishga urinish, axloqiy me’yorlar barcha davr va millat kishilariga xos bo’lgan umuminsoniy xislat va fazilatlardir. Bilish va o’z-o’zini bilish – bular shunday aqliy amaliyotki, ular koinot bilan bog’liq bo’lgan uyg’unlikni va unga muvofiq keladigan jamiyatni shakllanishini idrok etish bo’lib, bular ham o’z navbatida inson haqidagi g’amxo’rlikni ko’zda tutgan holda tashkil topganlar. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasidan farqli o’laroq, qadimgi zamon ta’lim tizimi axborotlarni berish va aqliy qobiliyatni mashq qildirishdangina iborat emas edi. U hayot uchun zarur bo’lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni tayyorlashni ko’zda tutar edi.

Bilish masalasida Tusi fikrlariga to’xtaladigan bo’lsak, bu haqda mutafakkirning “Axloqi Nosiriy” asarida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Muallif asarning to’rtinchi faslini insonning boshqa barcha mavjudotlardan afzalligini isbotlashga bag’ishlagan. Uning daliliga ko’ra, tabiiy jismlar jism bo’lganliklari tufayli bir-birlariga teng va barobar bo’lib, ularning oralari darajalarga va fazilatlarga bo’lingan emas. Ma’naviy jihatdan ularning hammasi bir hududda bo’lib, uzunlik, kenglik va chuqurlikda farqlari bo’lsa

ham va ko'rinishdangina turlarga bo'linsalar ham, baribir birinchi javhardan (hayulo) kelib chiqqan jins suratidadirlar. Insonning kamoloti ikki xil bo'lib, bu uning gapirish quvvatining ikki turligidan kelib chiqadi: birinchisi ilmiy quvvat, ikkinchisi esa amaliy quvvatdir. Ilmiy quvvatning kamoli shundaki, uning shavqi-zavqi narsalar mohiyatini idrok etishga qaratilgan ilmlarda bo'lib, ularning taqozolariga muvofiq haqiqatlarga tagigacha yetishga chidam bilan yondoshiladi va nihoyat oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishiladi. Amaliy quvvatning xususiyati shundaki, o'ziga xos bo'lgan barcha quvvatlarni tartibga keltirib, ularning bir-birlariga muvofiq kelishlarini ta'minlaydi. Natijada ular o'rtasida tinchlik o'rnatib, hammaga maqbul bo'lgan axloqiy sifatlarni vujudga keltiradi³⁵.

Aql taqozosiga ko'ra, har narsani o'z joyiga va vaqtiga qarab belgilash va bunga qo'shimcha sifatida har bir muayyan shaxsning saodati uning tarkibiy qismi ekanligini qayd etish lozim. Faylasuf hakimning nuqtai nazari barcha haqiqatlarning tahqiqini o'z ichiga olmog'i lozim. Shu sababga ko'ra, barcha saodatni besh qismga bo'lib chiqdi. Birinchisi, nimaiki, badanning sihat-salomatligi, his tuyg'ularni ravonligi va mijozning mo'tadilligiga taalluqli bo'lsa, ikkinchisi nimaiki, molu-davlat va yordamchilarga taalluqli bo'lsaki, unga tayanib, o'z qadami va mavosati tufayli yaxshi odamlar bilan aloqaga kirishib, ularni ko'nglini shod qilsa va boshqa xatti-harakatlari bilan tahsinga sazovorligini ko'rsatsa, uchinchi hadislarda aytilgan yaxshi narsalarga taalluqli bo'lgan xayrli narsalarning xalq o'rtasida yoyilganligini hisobga olib, ularning tashviqi orqali fazilatini namoyon qilib, maqtovga sazovor ishlari bilan nom qozonsa, to'rtinchisi, bu bilan maqsadlar va talab qilinayotgan umidlarni hosil qilishga taalluqli bo'lgan o'z ifodasini ko'rsatsa, beshinchisi yuqori sifatlarga taalluqli bo'lgan sog'lom fikr va maslahatlari bilan savob ishlarni keltirib chiqaradigan imkoniyatlarga ega bo'lsa. Demak, kimki ushbu sifatlarni qo'lga kiritisa, saydi komil bo'ladi, ya'ni to'la komillikka erishgan baxtli odam bo'ladi. Tushunchalar haqiqatining ochilishidan ma'lumki, atom zarrachalaridan iborat bo'lgan moddiylik zulmat, nuqson va qusurlar to'sig'i bilan berkitilgandir. Agar u ana shu berkitilganlikdan qochib qutilsa, jaholatdan pok bo'ladi va ilohiy nurdan bahramand bo'ladi va sof javharg aylanadi. U vaqtda unga to'la aql ismi qo'yiladi. Har kishining martabasi u hosil qilgan aqli va saviyasi bilan o'lchanadi. Bu faslda sanab o'tganimiz holatida shunday fazilatlar darajasiga yetib kelish mumkinki, odamlar faoliyatining barchasi sof ilohiylikka yaqinlashib, xayrli ilohiy faoliyatga aylanadi. Sof xayrli bo'lgan har qanday fe'lu atvorda uning foili ruhdan boshqa maqsadni ko'zlamaydi. Uning fe'li sof xayrli g'oyani istaydi va uning maqsadi ham ma'naviy bo'ladi. U g'oyaga aylanganda ham nihoyat darajada yoqimli bo'ladi va boshqa hech nimani xohlamaydi. Shunday qilib, odamlarning faoliyatining hammasi sof ilohiylikka biriksa, uning haqiqat zotidan limmo-lim bo'ladi, u ilohiy aqlga aylanib, badanning boshqa tabiiy da'volaridan qutiladi³⁶. Ko'p mavjudotlar insonga uncha

³⁵Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили.— Т., 2014. — Б.35.

³⁶خواجہ نصیر الدین طوسی، اخلاق ناصری، به تصحیح مینوی و علیرضا حیدری، تهران: خوارزمی، ۱۳۶۹ ش، چ ۴، ص ۹۴

ma'qul kelmasa ham, ammo unga taalluqliligi yo'q holda Alloh taolo tomonidan yaratilgan, biroq insoniy aql esa, inson tasarrufidagina bo'lishi mumkin.

Sidqidildan ilmga oshno bo'lib, uning nazariy kuchi va ravishini oson hisoblaydi va haqiqat bilan til topishadi. Uning ta'bi maishat ehtiyojlari va eshitishi yolg'onlardan nafratlanadigan bo'lib qolib, yuqori darajadagi kamolotga yaqinlashadi. U juda katta diqqat va qiziqish bilan hurmatini o'rganishga kirishib, uning sirlari va hazinalarini, murakkab joylarini ochishda muvaffaqiyatlarga erishib, oliy darajalariga erishadi. Bunday shogird tezda ushbu ilm san'atini egallashda o'z zamonida yagonalikka erishib, uning eng yaqin muxlisiga aylanadi. Ammo uning bu ilm bilan ajablanishi o'z vazifasini unutish darajasiga borib yetmasligi, ayni paytda uni chuqur o'rganishga to'siq bo'lmasligi lozim. U shuni anglashi lozimki, ilmning oxiri yo'q. Yuqorida aytilganlarning hammasi bilish ilmi bo'lib, uning darslarini o'zlashtirish chog'ida nimaiki kashf etilsa, undan g'aflatda qolmaslik, uni qaytarish va eslash bilan o'z malakasini oshirishi lozim. Hikmat ilmi dunyodagi barcha narsalarni qanday bo'lsa, shundayligicha tushunish bo'lganligidan unga qiziquvchilar undagi mavjudotlarni qismlarga bo'lib o'rganadilar. Mavjudotlarni ikki katta qismlarga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi qismdagi mavjudotlar jumlasiga shunday narsalar kiradiki, ularning harakat jarayonlari kishilar irodasiga bog'liq bo'lmaydi (osmonu falaklardagi ruhlar, unsurlar va boshqalar), ikkinchi guruhdagi mavjudotlarga inson tasarruf qilsa bo'ladigan, jamoat shohidligida namoyon bo'ladiganlar kiradi³⁷. Demak, mavjudotlar haqidagi ilm ham ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismdagi ilmni nazariy hikmat deyishadi. Ikkinchisi esa, agar modda bo'lmasa, uning o'zi ham bo'la olmaydi. O'z navbatida, bu qismni yana ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisida aql va tasavvurda moddaning bor-yo'qligiga e'tibor berilmaydi, ikkinchisida esa, e'tibor berilayotgan narsa, faqat modda bo'lgandagina ma'lum bo'ladi. Demak, shu nuqtai nazardan nazariy hikmatni uch qismga bo'ladilar. Birinchisini ilmu moba'dul tabia, deb atashadi, ikkinchisini ilmu riyoziy (matematika), uchinchisini esa, ilmu tabiiy deyishadi. Bu uch qism ilmdan har birisi, o'z navbatida, bir qancha qismlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari usul sifatida bo'lsalar, ba'zilari ikkinchi darajalidirlar. Ammo birinchi ilmning usuli ikki fandan iborat bo'lib, birinchisi Allohu taolo va uning farmoniga binoan vujudga kelgan uchqunlari bo'lsa, ikkinchisi mavjudotlar va ularning turlaridir. Mavjudotlar birlik va ko'plik hamda vujudan iborat bo'lib, paydo bo'lish yoki qadimdan mavjud bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli birinchi falsafa deb ataladilar. Mavjudotlarni bilish uchun ularni qismlarga bo'lishni davom ettirib, Nasiriddin Tusiy inson ruhiga yetib keladi va bu haqda shunday yozadi: "Ruhlar ichida inson ruhini qo'zg'ovchi va hayvonot jonlaridan tubdan farq qiluvchi shunday bir quvvat borki, uni nutq quvvati deb atashadi. Bu quvvat barcha narsalarni qurollsiz ravishda idrok eta oladi. Uning e'tibori mavjudotlar haqiqatini va ularni o'rab turgan sinflarga qaratilganligidan uni nazariy aql deyishadi". Uning tasarrufida inson faoliyatidagi

³⁷ Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – Б.97.

yaxshi narsalarni yomonlaridan ajratish va kun kechirishning foydali jihatlarini aniqlash imkoniyati borligidan bunday quvvatni amaliy aql deb atashadi. Bu quvvatning ikki qismga bo'linishidan ikki bo'lim shakllanganligi uchun ilmi hikmatni (falsafani) ikkiga bo'ldilarki, birinchisini nazariy va ikkinchisini amaliy, deb atadilar.

Junayd Bag'dodiy yaqiyinni shak-shubhaning oradan ko'tarilishi, degan bo'lsa, Zunnun Misriy ko'z bilan ko'rgan narsani — ilm, qalb bilan ko'rgan narsani — yaqin deb aytgan. Nasiriddin Tusiy “Takosur” surasining 6-oyati va “Voqi'a” surasining 94-oyatiga tayanib, yaqiyinning 3 darajasi — ilm-ul yaqiyn – علم اليقين (shubha va gumondan xoli bo'lgan aqida haqida bilim hosil qilish), ayn-ul yaqiyn – عين اليقين (shubhadan xoli aqida sohibi bo'lish) va haqq-ul-yaqiyn – حق اليقين (shubhadan xoli aqidaning mohiyatiga yetish) borligini ta'kidlaydi. Xususan, Nasiriddin Tusiy “Adab ul-mutaallimin” (“Talabalar madaniyati” – آداب المتعلمين) risoladagi masalalar sharhida ko'pincha Allohning so'zlari, Payg'ambar hadislar hamda hikmatli so'zlarga murojaat qiladi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, ilohiy fazilatlarining eng muvozanatlisi va mukammallikning eng yuqori chegarasi. Bunda muallif aql va bilim bilan inson tabiatini madh etishni qo'llab-quvvatlaydi³⁸. Inson o'zining shaxsiyati va bilimining mukammalligini his qilishini qabul qilganligi sababli, ular bundan hayajonlanadilar. Shuning uchun mutafakkir ilmning lazzati ilmning sharaf darajasiga bog'liq deb hisoblaydi. Nasiriddin Tusiy ilm mohiyati haqida fikr yuritib, ilm-fan bilan shug'ullanish kayfiyat ekanligini aytdi. Talaba birinchi navbatda o'zi uchun yaxshi va yomonni e'tiborsiz qoldirmaslik kerakligini, yaxshilik qilish kerakligini, yomondan saqlanish kerakligini tushuntiradi, shunda insonning ongi va bilimi uning uchun mayoq bo'lishi mumkin. Ilm olish masalasida, avvalo, u Qur'onning kalimalari bilan bog'lanadiki, o'quvchi bilimlarni o'rganishga mutloq intiladi va bu niyat barcha holatlar uchun asosdir. Olimning fikriga ko'ra, talaba ilmni Alloh uchun o'rganishi, g'azabini o'zidan va boshqa johil odamlardan uzoqlashtirishi, Islomni pok tutishi, dinini obod qilishi va shu qadar yaxshilik qilishi maqsadga muvofiqdir. Ilm-fanni o'rganayotgan talaba esa bor kuchi bilan harakat qilishi, o'lik va ma'nosiz dunyoda hayotini behuda narsalarga sarflamasligi, ochko'zlikdan tiyilishi, qasos olishdan va takabburlikdan saqlanishi kerak. Ilm tolibi ilm-fanning eng yaxshisini tanlashi kerak, diniy bilimni chuqur o'rganish esa bu eng katta boylikdir. O'qituvchi haqida gap ketganda, talaba eng savodli, eng dindor va eng yaxshi o'qituvchilarni tanlashi kerak. Uning aytishicha, ilm o'rganishni, ya'ni yangi fanni o'rganishni istagan har bir kishi atrofdagilar bilan maslahatlashishi kerak³⁹. Muallif o'quvchining bitta mavzuni chuqur o'zlashtirmasdan boshqa mavzu bilan shug'ullanishi yaxshi narsa emasligini uqtiradi. Shuningdek, uning fikricha, talaba besabab o'zi o'qiyotgan shahardan boshqa shaharga ko'chib o'tmasligi kerak. Buning sababi shundaki, bu talabani o'qishi bilan bog'liq ishdan

³⁸ Kushshayeva N. The problem of etiquette of receiving knowledge and perfection in works of Nasiruddin Tusi, its significance in the upbringing of youth. Central Asian journal of social sciences and history volume: 02 ISSUE: 02 | FEB 2021 (ISSN: 2660-6836) – P.61.

³⁹ O'sha asar – B.62.

mahrum qiladi, o'quvchining e'tiborini chalg'itadi va vaqtini behuda sarflashga olib keladi⁴⁰. Tusiyning fikriga ko'ra, har bir kishi o'zining salbiy xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Buning uchun Haqqa yuzlanish, aql va fikr kuchiga tayanish kerak. Agar inson nima uchun bu dunyoga kelganini tushunmasa, demak u o'zini anglamaydi va haqiqiy yo'l qayerdaligini ham bilmaydi. Aql faqat yaxshilikni yomondan ajratish uchun beriladi⁴¹. So'fiylar singari Tusi ham inson o'z qalbini tarbiyalash uslubiga ko'ra mukammallikka erisha oladi, deb ishonadi. "Kimki bu dunyo vaqtinchalik ekanligini bilsa, u dunyoning yovuzligidan saqlanib, unga aldanib qolmasligi mumkin. Nafsini tarbiyalay oladigan har kim Haq yo'lida borishi mumkin", - deb ta'kidlaydi⁴².

Qomusiy olim Nasiriddin Tusiyning ontologik, gnoseologik va mantiqiy qarashlarida biz ham yunon faylasuflari qarashlarining ta'sirini, ham Islom dinining ta'sirini kuzatamiz. Nasiriddin Tusi bu masalalarda har ikkala jihatni oqilona muvozanatga keltirishga harakat qiladi. Tusiyning mantiqiy qarashlariga kelsak, bu yerda quyidagilarni ta'kidlash zarur: Aristotel va Ibn Sino mantig'ining asosiy tamoyillarini himoya qilish va rivojlantirish paytida Tusi shu bilan birga o'zining ko'plab noyob asarlarini yozgan. Va bu bizga Tusiyning mantiqiy-epistemologik kontsepsiyasi haqida aniq tasavvurni beradi. Nasiriddin Tusiyning epistemologik qarashlarining shakllanishiga yunon-rim falsafasining ta'siri qanchalik katta bo'lmasin, baribir uning dunyoqarashi va uning barcha g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining ma'naviy merosiga asoslangan edi. Nasiriddin Tusi o'zining falsafiy mulohazalarida Aristotel an'alarini davom ettirib, haqiqat masalasida ratsionalizm va sensualizm ikkala rol ni ham o'ynashini ko'rsatishga intildi. Nasiriddin Tusi shu tarzda falsafaning barcha yo'nalishlarida o'ziga xoslikka erishadi.

FOYDALANILGAN ASARLAR RO'YXATI:

1.Kushshayeva N. The problem of etiquette of receiving knowledge and perfection in works of Nasiruddin Tusi, its significance in the upbringing of youth. Central Asian journal of social sciences and history volume: 02 ISSUE: 02 | FEB 2021 (ISSN: 2660-6836). – 60-64p.

2.Kushshayeva N. Philosophical outlook of Nasir Tusi. AJSHR Vol 1, Issue 1, March 2020 ISSN: 2690-9626. – 59-61p.

3.Nasiriddin Tusi. Cyrus Suluk. Compiled and translated by English. Text by Sayyid Jalal Husayn Badakhshoni. – London, 1998. – 290p.

⁴⁰ Kushshayeva N. The problem of etiquette of receiving knowledge and perfection in works of Nasiruddin Tusi, its significance in the upbringing of youth. Central Asian journal of social sciences and history volume: 02 ISSUE: 02 | FEB 2021 (ISSN: 2660-6836) – P.63.

⁴¹ Kushshayeva N. Philosophical outlook of Nasir Tusi. AJSHR Vol 1, Issue 1, March 2020 ISSN: 2690-9626. – P.60.

⁴² Nasiriddin Tusi. Cyrus Suluk. Compiled and translated by English. Text by Sayyid Jalal Husayn Badakhshoni. – London, 1998. – P.87.

4.Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили.– Т., 2014. – 210б.

5. تهران، یدریح رضایعل و یدویم حیة صبح به، یداصر اخلاق، یطوس نیالد ریذ ص خواجه. / Xo'ja Nasiriddin Tusiy. Axloqi Nosiriy. Alirizo Haydariy tahriri asosida – Tehron: Xorazmiy, 1369 (hijriy). – 645b.